



SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Raxmonov Otabek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0002-5007-2945

raxmonov_o@bk.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sanoat korxonalari raqobatbardoshligining iqtisodiy mazmuni va unga ta'sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilingan. Xorijlik olimlarning zamonaviy ilmiy yondashuvlari umumlashtirilgan hamda raqobatbardoshlik tushunchasining mikro-, mezo- va makrodarajalardagi xususiyatlari yoritilgan. O'zbekiston sanoatining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida mamlakatimiz sanoat korxonalari raqobatbardoshligining hozirgi holati baholangan va unga ta'sir etuvchi ichki hamda tashqi omillar guruhlashtirilgan holda o'rganilgan. Tadqiqot natijasida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *sanoat korxonasi, raqobatbardoshlik, raqobat ustunligi, innovatsion salohiyat, raqamli transformatsiya, ichki va tashqi omillar.*

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЕ

Рахмонов Отабек

Деновский институт

предпринимательства и педагогики

Аннотация. *В данной статье системно проанализированы экономическая сущность конкурентоспособности промышленных предприятий и факторы, влияющие на неё. Обобщены современные научные подходы зарубежных исследователей, а также раскрыты особенности понятия конкурентоспособности на микро-, мезо- и макроуровнях. На основе официальных статистических данных промышленности Узбекистана дана оценка текущего состояния конкурентоспособности отечественных промышленных предприятий и проведена группировка внутренних и внешних факторов, оказывающих на неё влияние. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения по повышению конкурентоспособности промышленных предприятий.*

Ключевые слова: *промышленное предприятие, конкурентоспособность, конкурентное преимущество, инновационный потенциал, цифровая трансформация, внутренние и внешние факторы.*

ECONOMIC CONTENT OF THE COMPETITIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES AND FACTORS INFLUENCING IT

Rakhmonov Otabek

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. *This article provides a systematic analysis of the economic essence of industrial enterprise competitiveness and the factors influencing it. Modern scientific approaches of foreign scholars are generalized, and the characteristics of the competitiveness concept at the micro-, meso-, and macro-levels are examined. Based on official statistical data of Uzbekistan's industry, the current state of competitiveness of domestic industrial enterprises is assessed, and internal and external factors affecting it are identified and grouped. As a result of the study, scientific and practical recommendations for enhancing the competitiveness of industrial enterprises are developed.*

Keywords: *industrial enterprise, competitiveness, competitive advantage, innovation potential, digital transformation, internal and external factors.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi milliy iqtisodiyot barqaror o'sishi, ichki va tashqi bozorlarda mustahkam mavqega ega bo'lish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Raqobatbardoshlik bugungi kunda faqat mahsulot sifati yoki narx ustunligi bilan emas, balki korxonaning resurslardan samarali foydalanishi, innovatsiyalarni joriy etishi, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishi, boshqaruv tizimini takomillashtirishi, raqamli texnologiyalarni qo'llashi va bozor talablariga moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Shu bois sanoat korxonalarini raqobatbardoshligining iqtisodiy mazmunini chuqur ochib berish va unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda ham ushbu mavzu nihoyatda dolzarb sanaladi. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoatni diversifikatsiya etish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksportni ko'paytirish va hududiy sanoat salohiyatini kuchaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylangan. Xususan, 2030 yilga borib iqtisodiyot hajmini keskin oshirish, bunga esa faqat ichki bozor hisobidan emas, balki investitsiyalarni jalb qilish, eksportni kengaytirish va sanoatda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish orqali erishish maqsad qilib belgilangan.

Adabiyotlar sharhi.

Sanoat korxonalarini raqobatbardoshligi masalasi zamonaviy iqtisodiyot fanining markaziy muammolaridan biri bo'lib, uning nazariy asoslari va amaliy jihatlari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu masalani ikki asosiy yo'nalishda o'rganish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, raqobatbardoshlikning iqtisodiy mazmunini ochib berish, ikkinchidan, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Raqobatbardoshlik tushunchasining iqtisodiy mohiyatini aniqlashda ilmiy jamoatchilikda yagona, umumqabul qilingan ta'rif mavjud emas. Kyshakevych va hammualliflar (2023) ta'kidlashicha, tadqiqotchilar orasida uchta asosiy yondashuv shakllangan: birinchi yondashuv raqobatbardoshlikni faqat korxonaning ichki va tashqi faoliyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi; ikkinchi yondashuv uni raqobatbardosh mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish qobiliyati bilan tenglashtiradi; uchinchi kompleks yondashuv esa mahsulot va ishlab chiqarish jarayonini birgalikda tahlil qiladi. Kovtunenko va hammualliflar (2021) tadqiqotlari ham ushbu uch yo'nalishli klassifikatsiyani tasdiqlaydi va korxonalar raqobatbardoshligini ham ichki salohiyat, ham bozordagi mahsulot ustunliklari majmui sifatida talqin qiladi.

Mazkur tushunchaning ko'p qirraliligini tushunish uchun uni turli agregatsiya darajalarida o'rganish talab etiladi. Raqobatbardoshlik korxonasi, tarmoq, mintaqa va milliy iqtisodiyot darajalarida namoyon bo'ladi, biroq har bir darajada o'ziga xos belgilarga ega. Buhas va hammualliflari (2018) ushbu kontseptsiyaning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq ochib berib, raqobatbardoshlikni qiyosiy ustunlik sifatida ta'riflaydilar. Mualliflarning fikricha raqobatbardoshlik - bu raqobatchilarga qarshi tura olish, foyda olish, omon qolish va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash qobiliyatidir. Virchenko (2025) esa bu fikrni rivojlantirib, raqobatbardoshlik ikki jihatni - bozor ko'rsatkichlari (sotuv hajmi, foyda, bozor ulushi) va ichki imkoniyatlar (mehnat unumdorligi, innovatsion faollik, xodimlar malakasi, kapital jihozlanganlik) - birlashtirishi lozimligini asoslaydi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda raqobatbardoshlik tushunchasi sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirmoqda. Kotelnikova (2022) fikriga ko'ra, hozirgi qarashlar raqobatbardoshlikni faqat narx va sifat parametrlari bilan cheklamay, balki dinamik, innovatsion va raqamli omillarni ham o'z ichiga olishi zarur. Shu bilan birga umumqabul qilingan nazariy asos mavjud emasligi sababli korxonasi raqobatbardoshligini kompleks miqdoriy baholashning yagona metodologiyasi hozirgacha ishlab chiqilmaganini alohida ta'kidlash zarur. Bundan tashqari, kichik va o'rta korxonalar nisbatan yirik korxonalar uchun mo'ljallangan baholash usullarini qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki ularning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv tizimi va hamkorlik shakllari tubdan farqlanadi.

Korxonasi raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omillar majmuasi turli olimlar tomonidan har xil guruhlarga ajratilgan holda o'rganilgan. Poiasnyk (2022) tadqiqotida raqobatbardoshlik korxonaning foyda olish va barqaror o'sishni ta'minlash qobiliyati bilan bevosita bog'liq ekani asoslanib, unga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida mahsulot va xizmatlar sifati, narx hamda yetkazib berish muddatlari, marketing va savdo strategiyasining samaradorligi, sotuv tarmog'i va reklama faoliyati, xodimlarning kasbiy malakasi va boshqaruv ko'nikmalari, texnologik daraja va innovatsion salohiyat, shuningdek, sotuvdan keyingi servis va texnik xizmat ko'rsatish tizimi belgilab berilgan. Ushbu omillar yig'indisi korxonaning raqobat ustunliklarini tashkil etib, uning bozordagi mavqeini aniqlaydi.

Zhulanov va Oksman (2024) xorijiy adabiyotlar tahlili asosida sanoat korxonalarini raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarning yangi tasnifini taqdim etadilar. Ular raqobat ustunliklarini rivojlantiruvchi uchta muhim iqtisodiy instrumentni ajratadilar: birinchidan, resurslar va texnologik innovatsiyalar yangi firmalarning bozorga kirishi hamda yangi mahsulotlar yaratish uchun "imkoniyat oynalarini" ochadi; ikkinchidan, tarmoq hamkorligi (network interaction) bilim va o'qitish darajasini oshirish orqali qo'shimcha resurslarni jalb qilish imkonini beradi; uchinchidan, kadrlarni uzluksiz o'qitish va bilimlarni yangilab borish raqobat afzalliklarini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Shu tariqa, raqobatbardoshlik nafaqat mahsulot sifati, balki kooperatsiya tarmoqlari, bilim oqimlari va texnologik salohiyatni boshqarish orqali barqaror ustunlik yaratish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Makroiqtisodiy darajadagi drayverlarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dou hamda hammualliflari (2021) tomonidan G20 mamlakatlari misolida 2008-2018 yillar davomida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari sanoat raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi uchta asosiy omilni aniqlashga imkon berdi. Transport xizmatlari, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, ishlab chiqarish raqobatbardoshligiga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari barcha mamlakatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning samarasi rivojlangan davlatlarda yuqoriroq darajada namoyon bo'ladi. Intellektual mulk himoyasi esa faqat rivojlangan mamlakatlarda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar logistika samaradorligi, bilimga asoslangan innovatsiyalar va texnologik yangilanish mexanizmlari orqali sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligi ko'p qirrali va murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni yagona ta'rif doirasida ifodalash mushkul.

Raqobatbardoshlikning iqtisodiy mazmuni korxonaning ichki salohiyati, mahsulot sifati va bozordagi mavqeini uzviy bog'lab turadi. Unga ta'sir etuvchi omillar esa mikro darajadagi ichki resurslardan tortib, makro darajadagi institutsional va tarmoq omillarigacha keng ko'lamni qamrab oladi. Zamonaviy sharoitda raqobatbardoshlikni ta'minlashda innovatsion salohiyat, raqamli transformatsiya va tarmoq hamkorligi tobora ortib borayotgan rol o'ynamoqda, bu esa ushbu masalani yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada korxonalar raqobatbardoshligining iqtisodiy mohiyati, unga ta'sir etuvchi omillar va zamonaviy yondashuvlar tadqiq etildi. Tadqiqot davomida analiz va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida raqobatbardoshlik nazariyasi, korxonalar faoliyati samaradorligi, innovatsion rivojlanish va raqobat ustunliklari masalalarini yoritgan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda tadqiqot natijalariga tayanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Adabiyotlar sharhi asosida shakllantirilgan nazariy asoslarni O'zbekiston sanoatining amaliy holati va statistik ma'lumotlari bilan uyg'unlashtirish raqobatbardoshlik muammosining mazmunini to'laroq ochib berish imkonini beradi. Olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonasi raqobatbardoshligi bu korxonaning bozordagi raqobatchilariga nisbatan ustunlik yaratish, iste'molchi talabini to'liq qondiruvchi mahsulot ishlab chiqarish, resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash qobiliyatini ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriyadir. Buhas va hammualliflari (2018) tomonidan taklif etilgan ta'rifga tayangan holda hamda Virchenko (2025) ishlab chiqqan ikki jihatli yondashuvni inobatga olib, raqobatbardoshlikni ikki o'lchamda, ya'ni, bozor ko'rsatkichlari va ichki imkoniyatlar o'lchamida izohlash maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz.

O'zbekiston sanoati hozirgi sharoitda bozor ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 6,8% ga o'sdi (2023-yilda 6,3%), sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 25,9% dan 26,1% gacha oshdi. Yil davomida mamlakat tashqi savdo aylanmasi 66 milliard dollarni tashkil etdi, eksport hajmi 8,4% ga o'sdi. Ushbu ko'rsatkichlar Dou va hammualliflari (2021) asoslagan yondashuvga muvofiq sanoat raqobatbardoshligining bozor darajasidagi ijobiy dinamikasidan dalolat beradi.

Tarmoqlar kesimida eng yuqori o'sish elektrotexnika sanoatida qayd etildi 16,3% (2023-yilda 3,1%), to'qimachilik sanoatida 10,7%, avtomobilsozlikda 8,8%, qurilish materiallari sanoatida 7,5%, metallurgiyada 6,4%. Shu bilan birga, farmatsevtika 7,5% va charm-poyabzal sanoatida 0,6% pasayish kuzatildi. Bu farq tarmoqlar kesimida raqobatbardoshlik darajasining bir xil emasligini va Poiasnyk (2022) fikricha, har bir tarmoqda raqobat ustunliklari majmuasining o'ziga xos tarkibi mavjudligini isbotlaydi.

Biroq raqobatbardoshlikning ichki imkoniyatlar o'lchami, ayniqsa korxonalar darajasida, sezilarli muammolarning mavjudligini ko'rsatadi. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-fevralga qadar mamlakatda 68,7 ming sanoat korxonasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2025-yil 1-fevral holatiga ko'ra bu raqam 56,3 mingga tushdi, ya'ni bir yil ichida qariyb 12 400 ta korxonalar faoliyatini to'xtatdi. Bu ko'rsatkich ayrim korxonalarning raqobatbardoshligi past darajada ekanligi va ular bozor sharoitiga moslasha olmayotganini bevosita isbotlaydi. Shu bilan birga, 2025-yil yanvar oyida sanoat mahsulotlarining umumiy hajmi 55,8 trln so'mni tashkil etib (2024-yil yanvardagi 44,6 trln so'mga nisbatan), raqobatbardosh korxonalar tomonidan yaratilayotgan qo'shilgan qiymat oshayotganini ko'rsatmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar asosida sanoat korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni ikki katta guruhga, ichki va tashqi omillarga bo'lish maqsadga muvofiq. Bu guruhlarning har biri bir necha kichik komponentlardan tashkil topadi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat korxonalarini raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar guruhlarini

Zhulanov va Oksman (2024) ta'kidlashicha, aynan resurslar va texnologik innovatsiyalar korxonaning bozorda mustahkam o'rin egallashi uchun "imkoniyat oynalarini" ochadi. Bu fikrni O'zbekiston misolida olib qaraydigan bo'lsak, "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirib, 5 ming korxonaga yetkazish vazifasi belgilangan, bu aynan ichki texnologik salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishdir.

Olib borilgan tadqiqotlarda transport xizmatlari ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat raqobatbardoshligiga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bu xulosa O'zbekiston sharoitida juda dolzarb bo'lib, uning "quruqlik bilan o'ralganlik" geografik joylashuvi transport-logistika omilini muhim strategik masala sifatida kun tartibiga qo'yadi.

Kotelnikova (2022) fikricha, zamonaviy sharoitda raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy yo'li raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishdan o'tadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-iyuldagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sanoat korxonalarini sonini 613 tadan 2 250 taga yetkazish, innovatsion infratuzilma subyektlari, jumladan, texnoparklar, innovatsion klasterlar, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar sonini 3 barobarga oshirish vazifalari belgilangan. Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq mamlakatimizni Global Innovatsion Indeksda dunyoning eng yaxshi 50 ta mamlakati qatoriga kirishi maqsad qilib qo'yilgan.

Ushbu strategik maqsadlar kadrlarni uzluksiz o'qitish va bilimlarni muntazam yangilash bilan bevosita bog'liqdir. Innovatsion kadrlar salohiyatini shakllantirish jarayonida nafaqat texnik malakani oshirish, balki raqamli savodxonlikni rivojlantirish hamda tizimli fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunda ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda.

Shuningdek, tarmoq hamkorligi sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda bu borada maxsus iqtisodiy zonalar muhim rol o'ynamoqda. 2024-yil holatiga ko'ra ularning soni 22 taga yetib, soliq va bojxona imtiyozlari orqali sanoat subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Natijada sanoat

mahsulotlari eksportida ijobiy o'sish kuzatilmoqda, xususan kimyo sanoatida yuqori sur'atlar qayd etilgan. Shu bilan birga, mashina va transport uskunalari eksportining qisqarishi ayrim tarmoqlarda raqobat ustunliklarini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda, bir tomondan, texnologik modernizatsiya va innovatsion salohiyatni rivojlantirish, ikkinchi tomondan, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, infratuzilma, transport-logistika tizimi va tashqi savdo muhitini takomillashtirish ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishlar o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshirilgandagina raqobatbardoshlikni tizimli va barqaror tarzda oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari sanoat korxonalarini raqobatbardoshligi ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya ekanini va uning mazmuni korxonaning ichki salohiyati hamda bozordagi mavqei o'zaro kesishgan nuqtada shakllanishini tasdiqlaydi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur tushuncha bo'yicha yagona, umumqabul qilingan ta'rif va baholash metodologiyasi mavjud emas. Shunga qaramay, turli yondashuvlarda umumiy mazmun sifatida korxonaning raqobatchilarga nisbatan ustunlik yaratish va barqaror rivojlanishni ta'minlash qobiliyati asosiy mezon sifatida saqlanib qoladi.

O'zbekiston bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlili sanoat sektorida ijobiy o'sish tendensiyalari mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining ortishi, eksport ko'rsatkichlarining yaxshilanishi hamda YaIMdagi ulushning oshishi kuzatilmoqda. Biroq, qisqa muddat ichida sezilarli miqdordagi sanoat korxonalarining faoliyatini to'xtatgani korxonalar darajasida raqobatbardoshlik yetarli darajada ta'minlanmayotganini anglatadi. Bu esa sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tizimli va maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini kompleks baholashning milliy metodologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, mahsulot sifati va narxi, mehnat unumdorligi, innovatsion faoliyat darajasi, raqamlashtirish ko'rsatkichlari, eksport ulushi hamda kapital bilan ta'minlanganlik kabi mezonlarni qamrab olishi lozim.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasini jadallashtirishga qaratilgan kompleks davlat dasturini ishlab chiqish zarur. Bu jarayonda sanoat korxonalarini, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion klasterlar va texnoparklar faoliyatini kengaytirish, shuningdek, "tarmoq-hudud-ilmiy tashkilot" o'zaro aloqalar tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur choralar korxonalarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash va ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sanoat raqobatbardoshligini oshirishda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va intellektual mulkni himoya qilish tizimini mustahkamlash muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, transport yo'laklarini modernizatsiya qilish, logistika marshrutlarini diversifikatsiyalash hamda xalqaro standartlarni joriy etishni kengaytirish sanoat mahsulotlarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda sanoat tarmoqlari kesimida raqobatbardoshlikni miqdoriy baholash hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt va katta

ma'lumotlar tahlilining ushbu jarayonga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:

Buhas V., Nevmerzhitskaya, S. and Buhas, N. (2018). *The economic essence of competitiveness and competitive advantages of the enterprise. Modern Economics.*

Dou Z., Wu B., Sun Y., Wang T. (2021). *The Competitiveness of Manufacturing and Its Driving Factors: A Case Study of G20 Participating Countries. Sustainability.*

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni.*

Farmon (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.*

Kotelnikova I. (2022). *Increasing the competitiveness of enterprises under the conditions of digitalization. Innovation and Sustainability.*

Kovtunen K., Didan K., Kovalchuk O. (2021). *Competitiveness of Enterprise: The Essence and Approaches to Definition. Business Inform, 3, pp. 100-104.*

Kyshakevych B., Demediuk B., Volynskiy O. (2023). *Competitiveness of the enterprise: economic essence and evolution of views. Economic scope.*

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2024-2025) Sanoat ishlab chiqarishi va YAIM ko'rsatkichlari.

Poiasnyk H. (2022). *Influence of the main factors to determine the competitiveness level of the enterprise. Economics. Finances. Law.*

Virchenko V. (2025). *Transformation of the concept of enterprise competitiveness in the context of modern challenges. theoretical and applied issues of economics.*

Zhulanov E., Oksman A. (2024). *Transformation of Foreign Approaches to Understanding the Enterprise Competitiveness. Regionalnaya ekonomika. Yug Rossii.*